

Rus kompozitori P.I.Chaykovskiyning "Iolanta" operasidagi Robert partiyasining ijroviy talqini masalalari

O'zbekiston Davlat konservatoriyasi

"Akademik xonandalik" opera tayyorlov

2-kurs Magistri Yuldoshev Mirfayoz Malikjonovich

Buyuk rus kompozitori P.I.Chaykovskiy tomonidan yaratilgan yorqin musiqiy -sahnaviy asarlardan biri «Iolanta» operasi hisoblanadi. Shuni qayd etish lozimki, operaga yozilgan har bir musiqa o'ziga hos kuychan va tomohsabinlar qalbidan chuqur o'rin oladigan darajada yaratilgan. Undagi har bir ariyalar, duetlar va ansambllar hozirgi kungacha xonandalarning konsert repertuaridan muqim o'rin egallagan. Operadagi bosh qahramonlardan biri bo'lgan Robert ariyasi ham barcha bariton ovozli xonandalar repertuaridan joy olgan. Ariyaning ijro tahlilidan oldin opera yaratilishi tarixiga ozroq nazar tashlab o'tsak.

P.I.Chaykovskiyning «Iolanta» operasi lirik musiqali drama janriga mansub. U 1891 yilda iyuldan sentyabrgacha yaratilgan va kompozitorning so'nggi operasi bo'lgan. «Men shunday opera yozamanki, hamma yig'laydi», dedi buyuk rus kompozitori o'z asari ustida ishlayotganda. Garchi tomoshabinlarning ko'z yoshlariga qahramonlarning baxt va quvonchi sabab bo'lsada, haqiqatan ham muvaffaqiyatga erishdi. «Iolanta» operasi haqli ravishda muallifning eng yorqin va sokin asari hisoblanadi. U Geynrix Gertsning «Qirol Renening qizi» poetik dramasi asosida yaratilgan, F. Miller tomonidan tarjima qilingan va keyinchalik V.R. Zotov tomonidan qayta taxrirlangan.

XV asr, Fransiya Provansi. Voqealar Provansda hukmronlik qilgan Renening eski oilaviy qal'asida bo'lib o'tadi. Uning yagona merosxo'ri Iolanta bolaligida ko'rish qobiliyatini butunlay yo'qotadi. Sevimli ota hammaga ko'rish imkoniyati haqida gapirishni taqiqladi, shuning uchun qiz o'zini boshqalardan farq qilmasligiga shubha qilmadi. Uning hayoti boshqalarning sevgisi va g'amxo'rligida

o'tdi. Otasi, xizmatkorlar, hamshira, dugonalari – barchasi mehribon va g'amxo'r edi.

Asarning ijro tahlilini Robert ariyasi shakli va ijrosidan boshlaymiz. Ushbu ariya uch qismli shaklda bo'lib, texnik jihatdan murakkab ariyalardan biri hisoblanadi. Ariyaning boshlanishi tez (Vivace) tempida yozilgan.

АРИЯ РОБЕРТА из оперы "Иоланта"

П.И. Чайковский

Vivace ♩ = 120




Moderato ♩ = 72

appassionato con dolcezza

Ushbu temp ariyaning birinchi va uchinchi qismlarida bir hilda bo'lishi kerak. Bu asar o'z muhabbatiga bo'lgan sadoqatini baralla kuylovchi ariyadir. Shu

sababdan har bir jumlagi alohida e'tibor berish lozim. Kuylash jarayonida ovozni yuqori pozitsiyada, bir hilda ushlab turish talab etiladi.

Asarning ikkinchi qismi moderato tempida bo'lib, bu yerda ijrochidan keng va to'liq nafas talab etiladi. Shu bilan birga asarning lirik mohiyatini yo'qotmasdan ijro qilish lozim.



Bulardan tashqari ariyani ijrosi opera syujetiga mos bo'lishi kerak. Chunki bu operada asosiy bog'lovchi vazifasini bajaradigan ariyalardan biridir.

Ariyaning kulminatsion nuqtasi uchinchi qismida ifodalangan. Bu yerda ijrochi his tuyg'ularining cho'qqisini yuqori notalar orqali tasvirlaydi.



Музыкальный фрагмент, включающий вокальную партию и фортепиано. Текст песни на русском языке: «ДИВ - НО ПОЛ - НО, в ней все О - ПЬЯ - НЯ - ЕТ, в ней все О - ПЬЯ - НЯ - ЕТ и жжет, как ви - но, и жжет, как ви - но!». Музыкальные обозначения: *m. d.*, *cresc.*, *ff*, *poco sostenuto*, *Moderato* (♩ = 100).

Shu sababdan ham ushbu ariyani lirik xarakterdagi bariton ovozlar uchun tavsiya etiladigan asar deb hisoblashimiz mumkin.

So'nggi marta P.I.Chaykovskiy o'limidan to'qqiz kun oldin, ya'ni 1893-yilning 16-oktyabrida (yangi taqvim bo'yicha 28-oktyabr') dirijyorlik pul'tiga turadi. Bu konsertning 2-qismida uning oltinchi «Patetik» simfoniyasi ilk bor jarangladi.

1893-yilning 6-noyabrida (eski taqvim bo'yicha 25-oktyabr') Malaya Morskaya ko'chasi 13-uyda akasi Modestning xonadonida vabodan vafot etgan.

Professional kompozitor sifatida P.I.Chaykovskiy 1860-1870 yillardagi Rus imperiyasining madaniy va marifiy hayotining cho'qqisi: rus musiqasi, adabiyoti va rassomchiligining rivoji, mamlakat tabiatshunosligining gullab yashnashi, falsafa va estetik jabxalaridagi yorqin muvaffaqiyatlari paytida yetishib chiqdi.

P.I.Chaykovskiy turli janrlarda yaratilgan ulkan musiqiy merosga ega, bular – o'nta opera, uchta balet, yettita simfoniya, 104ta romans, bir qator simfonik asarlar, konsertlar, kamer-cholg'u ansambllari, xor asarlari, kantatalar, fortepiano uchun miniatyuralar va fortepiano uchun turkumlardir.

P.I.Chaykovskiy hayotining murakkab va qarama-qarshi hodisalarini psixologik tahliliga berilgan, atoqli lirik va psixolog-dramaturg, musiqiy romantizimning yorqin nomoyondasi, dunyoga mashhur buyuk kompozitorlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1."Chaykovskiy musiqa ijodi" M.1978y.
- 2."Rus klassik musiqasi va uning tarixi" M.1993y.
- 3."Rus bastakorlari musiqasi tarixi" T.1977y